



## XALQARO MIQIYOSDA FOYDALANILADIGAN HUQUQIY PLATFORMALARNING AHAMIYATI

**Zaynobiddinov Xasanboy**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ommaviy huquq fakulteti talabasi  
zaynobidinovxasanboy75@gmail.com  
+998936119484  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17667718>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 15- noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 21- noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

*Huquqiy platforma, xalqaro hamkorlik, shartnoma, xalqaro kelishuv, UN Treaty Collection, WorldLII, LexisNexis, Eur-Lex, UNCITRAL, shaffoflik.*

### ABSTRACT

*Jadal globallashuv va raqamli texnologiyalarining kundan kunga rivojlanishi barcha sohalarni qamrab olmoqda va yuridik sohada ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada xalqaro miqyosda keng qo'llanib kelayotgan huquqiy platformalarning ahamiyati, ularning huquqiy axborotlarni alamshtirishdagi o'rni, shaffofligi, mamlakatlar o'rtasidagi huquqiy aloqalarni rivojlantirishdagi olib borilayotgan say-harakatlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mazkur huquqiy platformalarning afzalliklari, huquqiy axborotlarni global miqyosda almashinuvidagi roli o'rganiladi.*

Axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot, ta'lim yoki sog'liqni saqlash tizimiga, balki huquqiy boshqaruv sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va turli yuridik shaxslar uchun huquqiy ma'lumotlarga tezkor, ishonchli va to'liq kirish imkoniyatining mavjudligi juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, so'nggi yillarda xalqaro huquqiy platformalar huquqiy boshqaruvning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu platformalar turli mamlakatlarning asosiy qonunlari, xalqaro shartnomalar, sud qarorlari, konvensiyalar, xalqaro doktrinalar va boshqa normativ hujjatlarni bir joyda jamlab, global miqyosda huquqiy axborot almashinuvini ta'minlab kelmoqda. Bu kabi platformalar foydalanuvchilarga turli manbalardan alohida ma'lumot izlash o'rniga, yagona onlayn platforma orqali huquqiy ma'lumotlarga tezkor ravishda ega bo'lish imkoniyatini yaratmoqda.

Masalan, UN Treaty Collection, WorldLII, LexisNexis, Eur-Lex va UNCITRAL kabi xalqaro platformalar bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida faol qo'llanilib, huquqiy jarayonlarda ochiqlik, shaffoflik va hamkorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — xalqaro miqyosda foydalaniladigan huquqiy platformalarning mohiyatini ochib berish, ularning funksional imkoniyatlarini tahlil qilish hamda global huquqiy hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iboratdir. Ushbu maqola shuningdek, raqamli huquqiy tizimlarning afzalliklari bilan bir qatorda, ularni joriy etishdagi mavjud muammolarni ham tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

### Metodlar

Ushbu maqolada tahliliy va taqqoslov metodlariga asoslanib ma'lumotlar o'rganib chiqildi. Asosiy manbalar sifatida xalqaro tashkilotlarning (UN, EU, WorldLII, LexisNexis) rasmiy saytlaridan foydalanildi.

Ma'lumotlar quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi:

- platformalarning huquqiy axborotga ochiqlik darajasi;


- xalqaro hamkorlikdagi qo'llanish imkoniyati;
- adolat va shaffoflikka ta'siri;
- ilmiy-tadqiqot va ta'limdagi o'rni.

Tahlil jarayonida sifatli (qualitative) yondashuv qo'llanilib, har bir platformaning amaliy natijalari o'rganildi.

**Muhokama va natijalar:**

2018-yilda dunyo bo'ylab huquqiy platforma tushunchasi amaliyotda keng qo'llanila boshladi. Bu g'oya yoki atama ko'plab sohalarda ilgari mavjud bo'lgan bo'lsa-da, huquqiy soha uchun yangi kirib kelgan tushuncha edi. Tasavvur qiling: dunyo bo'ylab yuzlab, hatto minglab yangi kompaniyalar paydo bo'lmoqda. Ularning har biri o'z dasturiy bazasiga ega, turli dasturlash tillarida ishlaydi va yirik hamda kichik huquqiy firmalarning e'tiborini qozonish uchun raqobatlashadi. Shu tariqa, yuridik sohada o'z o'rnini topishga urinayotgan ko'plab startaplar go'yo yangi "oltin izlash davri"ni boshlab bergandek, bozorda katta to'lqin hosil qildi.

## Integrating the Legal Platform



Birinchi huquqiy platformalar yaratilganida asosiy e'tibor "containerisation" (ya'ni dasturlarni standart shaklda va xavfsizlikni ustuvor qilib saqlash tizimi) tushunchasiga qaratilgan edi. Aslida bu standartlashtirish g'oyasining zamonaviy shakli bo'lib, uning markazida xavfsizlik turadi.<sup>1</sup>

So'nggi besh yil ichida ko'plab yuridik firmalar kiberhujumlardan jiddiy zarar ko'rdi. Xakerlar asosan firmalarning intellektual mulk yoki maxfiy ma'lumotlarini nishonga olgan. Shu bilan birga, yangi ilovalarning tez ko'payishi xavfsizlikni yanada murakkablashtirdi. Xalqaro huquqiy platformalar davlatlar, tashkilotlar, yuridik shaxslar va tadqiqotchilar uchun ishonchli, tizimli va tezkor huquqiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda eng mashhur bo'lgan quyidagi platformalarni keltirishimiz mumkin:


1. UN Treaty Collection (<https://treaties.un.org> )
2. EUR-Lex (<https://eur-lex.europa.eu> )
3. LexisNexis (<https://www.lexisnexis.com> )
4. Westlaw (<https://legal.thomsonreuters.com/en/westlaw> )

<sup>1</sup> <https://legalsolutions.thomsonreuters.co.uk/blog/2020/08/18/the-rise-of-legal-platforms-and-why-they-matter/>

5. WorldLII (<https://www.worldlii.org>)
6. UNCITRAL <https://uncitral.un.org/>

**1. UN Treaty Collection** — bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan yuritiladigan rasmiy xalqaro huquqiy axborot bazasi bo'lib, unda BMT Bosh kotibi depozitariysi sifatida saqlanadigan 560 dan ortiq ko'p tomonlama shartnomalar jamlangan. Ushbu platforma foydalanuvchilarga shartnomalarning to'liq matnini, ishtirokchi davlatlar ro'yxatini, imzolanish va kuchga kirish sanalarini, shuningdek, hujjatlarning amaldagi holatini tezkor va aniq tarzda taqdim etadi. Shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 102-moddasida quyidagicha belgilangan: "Birlashgan Millatlar Tashkiloti har bir a'zo davlat tomonidan tuzilgan har bir shartnoma va xalqaro kelishuv ... imkon qadar tezroq Bosh kotibiyatda ro'yxatdan o'tkazilishi va Bosh kotibiyat tomonidan nashr etilishi kerak." <sup>2</sup>

Platforma ayniqsa xalqaro huquq tadqiqotchilari, diplomatlar va siyosatshunoslar uchun katta ahamiyatga ega, chunki u global huquqiy tizimdagi shaffoflikni ta'minlash bilan birga, davlatlararo hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shu tariqa, UN Treaty Collection nafaqat axborot manbai, balki xalqaro huquqiy jarayonlarda ishonchli vosita sifatida xizmat qiladi.



Quyidagi rasmda ko'rsatilgan platforma — United Nations Treaty Collection (UN Treaty Collection) – **Advanced Search** bo'limi tasvirlangan. Advanced Search (Kengaytirilgan Qidiruv) bo'limi foydalanuvchilarga shartnomalarni aniq va tezkor qidirish imkonini beradi. Mazkur bo'limning quyidagu funksiyalari mavjud:

**Search for** - bu qism foydalanuvchiga qaysi turdagi hujjatni qidirayotganini tanlash imkonini beradi. Masalan, konvensiya, shartnoma, qo'shimcha protokol yoki boshqa hujjatlar.

**Filter by** - bu yerda foydalanuvchi qidiruvni filtrlar orqali toraytirishi mumkin. Masalan, ishtirokchi davlatlar, imzolanish sanasi, kuchga kirish sanasi yoki boshqa kriteriyalar bo'yicha.

**Add to Search Criteria** - tanlangan hujjat turi va filtrlar qidiruv mezonlariga qo'shiladi.

**Clear** - tanlangan qidiruv mezonlarini tozalash va yangi qidiruvni boshlash imkonini beradi.

**2. EUR-Lex** — Yevropa Ittifoqining rasmiy huquqiy axborot tizimi bo'lib, unda Yel qonunchiligi bilan bog'liq barcha hujjatlar, jumladan reglamentlar, direktivalar, qarorlar va sud qarorlari jamlangan. Platforma foydalanuvchilarga 24 ta rasmiy YI tilida hujjatlarga kirish imkonini beradi.

Yillar davomida tizim va uning qamrovi kengaygan, chunki Komissiya boshqa Yevropa Ittifoqi institutlari bilan hamkorlik qilgan va Ittifoq kengayib borgan. Tizim CELEX

<sup>2</sup> UN Treaty Collection. (2024). United Nations Digital Library. <https://treaties.un.org>

(Communitatis Europae Lex) deb nomlangan va tez orada ko'p ishlatiladigan interinstitutsional vositaga aylangan.<sup>3</sup>

Dastlab faqat ichki foydalanish uchun mo'ljallangan tizim turli darajadagi jamoatchilikka ochilgan, shu jumladan xususiy kompaniyalar orqali tijorat litsenziyalari ostida ham taqdim etilgan. Nihoyat, 1997-yilda veb-versiya ishga tushirilgan va EUR-Lex deb nomlangan, bu Yevropa Ittifoqi Nashriyot Idorasi tomonidan joylashtirilgan.

EUR-Lex veb-sayti jamoatchilikka 2001-yilda ochilgan, CELEX esa alohida ma'lumotlar bazasi sifatida 2004-yil oxirigacha mavjud bo'lgan. Keyinchalik ikki xizmatni birlashtirish va ularni butunlay bepul qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. 2016-yilda EUR-Lex korpusi asosida 24 tilda 3,9 million hujjatdan iborat moslashtirilgan paralel korpus ishlab chiqilgan, hujjatlar hajmi irland tilida 37 million token, ingliz tilida esa 840 million tokenni tashkil qilgan. Belgilanmagan ma'lumotlar tadqiqotchilarga Creative Commons litsenziyasi ostida taqdim etilgan. Nashr vaqtida mualliflar EUR-Lex korpusini Yevropa tillari resurslaridan yaratilgan eng katta paralel korpus deb hisoblashgan va uni lingvistik izlashlar uchun EUR-Lex rasmiy veb-saytidan ko'ra qulayroq deb topishgan.

EUR-Lex nafaqat yevropalik huquqshunoslar, balki xalqaro tadqiqotchilar uchun ham qulay manba bo'lib, Yel qonunchiligini o'rganish, tahlil qilish va taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, u Yevropa Ittifoqidagi huquqiy jarayonlarda shaffoflikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

**3. LexisNexis** — dunyo miqyosidagi eng yirik tijoriy huquqiy platformalardan biridir. U foydalanuvchilarga qonunlar, sud qarorlari, huquqiy sharhlar, yangiliklar va biznes ma'lumotlarini bir joyda taqdim etadi. LexisNexis – Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Nyu-York shahrida joylashgan ma'lumotlarni tahlil qilish kompaniyasi. Kompaniyaning mahsulotlari turli ma'lumotlar bazalaridan iborat bo'lib, ular onlayn portal orqali kirish imkonini beradi. Shu jumladan, kompyuter yordamida huquqiy tadqiqotlar (CALR), gazeta qidiruvi va iste'molchi ma'lumotlari portallari mavjud.

2019-yilda LexisNexis shartnoma ma'lumotlarini tahlil qilish bo'yicha yetakchi kompaniya Knowable bilan qo'shma korxonada e'lon qilgan. 2020-yil fevral oyida LexisNexis o'z ma'lumotlar bazasi xizmatlarini Amazon Web Services (AWS) bulutli arxitekturaga ko'chirdi va eski asosiy serverlari va tizimlarini yopdi. 2020-yilda Estates Gazette va Reed Business Information kompaniyasining qolgan biznesi LexisNexis tarkibiga qo'shildi.

LexisNexis'ning asosiy afzalligi — uning keng qamrovli qidiruv tizimi va tahliliy vositalari, bu orqali foydalanuvchilar kerakli hujjatni tez topish, o'rganish va solishtirish imkoniga ega bo'ladi. Ko'plab universitetlar, sud organlari va yirik yuridik firmalar platformadan faol foydalanadi.

**4. Westlaw** — Thomson Reuters kompaniyasiga tegishli yirik huquqiy axborot tizimi bo'lib, u AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa davlatlarning qonunchiligi, sud amaliyoti, sharhlar va tahliliy materiallarni o'z ichiga oladi.

Westlaw foydalanuvchilarga huquqiy hujjatlarni chuqur tahlil qilish, manbalar o'rtasida havolalar yaratish va qarorlar tayyorlashda yordam beradi. Platforma yirik advokatlik firmalari va universitetlar uchun ishonchli resurs sifatida xizmat qiladi.

**5. WorldLII (World Legal Information Institute)** — butun dunyo bo'ylab turli mamlakatlarning qonunlari, sud qarorlari va parlament hujjatlarini bepul va ochiq tarzda taqdim etuvchi nodavlat platforma hisoblanadi. World Legal Information Institute (WorldLII) – bu bepul, mustaqil va notijorat global huquqiy tadqiqot markazi bo'lib, huquqiy ma'lumot

<sup>3</sup> European Union. (2023). Eur-Lex – Access to European Union Law. <https://eur-lex.europa.eu>

institutlari va boshqa tashkilotlar tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan.<sup>4</sup> WorldLII uchta asosiy bo'limdan iborat:

- Ma'lumotlar bazasi (Databases)
- Katalog (Catalog)
- Veb-qidiruv (Websearch)

Ma'lumotlar bazasi - sud amaliyoti, qonunchilik, shartnomalar, huquqni isloh qilish bo'yicha hisobotlar, huquqiy jurnallar va boshqa materiallarni o'z ichiga oladi. Hozirda u 14 ta Huquqiy Ma'lumot Instituti orqali 123 yurisdiksiyadan jami 1165 ma'lumotlar bazasini qamrab oladi.

WorldLII Katalogi- dunyoning har bir mamlakatidagi 15 000 dan ortiq huquqiy veb-saytlarga havolalarni taqdim etadi.

Websearch - ushbu saytlarning matnlarini, WorldLII veb-qidiruv botiga yetib boradigan darajada, qidiruv uchun mavjud qiladi. WorldLII foydalanuvchilarga qimmat tijoriy tizimlarsiz xalqaro huquqiy manbalarga erkin kirish imkoniyatini beradi. Platformaning maqsadi — huquqiy axborotga erkin kirish va global huquqiy savodxonlikni oshirish.

**6. UNCITRAL (United Nations Commission on International Trade Law)** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro Savdo Huquqi Komissiyasi tomonidan yuritiladigan rasmiy huquqiy platformadir. Bu platforma xalqaro savdo va tijorat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar, model qonunlar, konvensiyalar, qo'llanmalar va tavsiyalarni bir joyda jamlaydi. UNCITRAL platformasining asosiy maqsadi — xalqaro tijorat kelishuvlarini soddalashtirish, ularni huquqiy jihatdan barqaror va shaffof qilish, shuningdek, davlatlar va korporatsiyalar o'rtasidagi nizolarni samarali hal qilish mexanizmlarini yaratishdir.<sup>5</sup>

Platformada CISG (Contracts for the International Sale of Goods), UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration va boshqa xalqaro hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlar davlatlar va yuridik shaxslar tomonidan xalqaro tijorat kelishuvlarini tartibga solishda keng qo'llaniladi. UNCITRAL arbitratsiya va vositachilik bo'yicha standartlarni taqdim etadi, shuningdek, nizolarni tezkor va adolatli hal qilish uchun foydali huquqiy qo'llanmalar mavjud. Platforma elektron bitimlar, raqamli imzo va onlayn savdo sohasidagi standartlarni ham o'z ichiga oladi, bu esa zamonaviy global savdo tizimini huquqiy jihatdan tartibga solishga yordam beradi. UNCITRAL davlatlar va tashkilotlarga xalqaro savdo huquqi bo'yicha maslahatlar beradi, tavsiyalar taqdim etadi va huquqiy infratuzilmani mustahkamlashda yordam ko'rsatadi.

#### Xulosa

Jahonning jadal globallashuvi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi huquq sohasida ham sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda xalqaro huquqiy platformalar global darajada huquqiy axborot almashinuvi, shaffoflik va hamkorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, UN Treaty Collection, EUR-Lex, LexisNexis, Westlaw, WorldLII va UNCITRAL kabi tizimlar foydalanuvchilarga tezkor, ishonchli va tizimli ma'lumot olish imkonini beradi, shuningdek, davlatlar, yuridik firmalar va tadqiqotchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bepul va notijorat platformalar (WorldLII, UNCITRAL, UN Treaty Collection) huquqiy savodxonlikni oshirish va axborotga erkin kirish imkonini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tijoriy tizimlar (LexisNexis, Westlaw) esa qidiruv, tahlil va hujjatlarni solishtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. EUR-Lex esa Yevropa Ittifoqi qonunchiligini o'rganish va lingvistik tadqiqotlar uchun qulay va ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

<sup>4</sup> World Legal Information Institute (WorldLII). Global Legal Database.

<sup>5</sup> UNCITRAL. United Nations Commission on International Trade Law Reports.2024.

Shunday qilib, xalqaro huquqiy platformalar nafaqat huquqiy ma'lumot manbai, balki global huquqiy tizimning ishonchli vositasi hisoblanadi. Ular davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda, xalqaro sud amaliyotini o'rganishda hamda ilmiy-tadqiqot va ta'lim jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, bunday platformalarni rivojlantirish va keng jamoatchilik uchun qulay qilish xalqaro huquqiy hamkorlikni mustahkamlash va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. UN Treaty Collection. United Nations Digital Library.2024. <https://treaties.un.org>
2. European Union. Eur-Lex – Access to European Union Law. <https://eur-lex.europa.eu> 2023
3. World Legal Information Institute (WorldLII). Global Legal Database.
4. LexisNexis. Global Legal Research Platform.
5. Westlaw International. Thomson Reuters Legal Database. 2020.
6. UNCITRAL. United Nations Commission on International Trade Law Reports.2024.
7. Jo'rayev B. Raqamli huquqiy tizimlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: Yuridik nashriyot. 2023.
8. <https://legalsolutions.thomsonreuters.co.uk/blog/2020/08/18/the-rise-of-legal-platforms-and-why-they-matter/>



INNOVATIVE  
ACADEMY